“T A S D I Q L A Y M A N”
Kadastr agentligi
direktori

_____F.J. Pulatov
2024-yil ____-fevral

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi direktorining 2024-yil uchun shaxsiy
ISh REJASI

T/r	Maqsadli ko‘rsatkichlar (indikatorlari)ga erishish bo‘yicha chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi / ishlab chiqiladigan hujjat	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	**12,5 ming** ta noqonuniy qurilmalar va o‘zboshimcha egallangan yerlarni aniqlash ustidan nazorat o‘rnatish. *2023-yilga (11,0 ming ta) nisbatan 114 foiz.*	1. 2024-yil yakuniga qadar 12,5 ming ta noqonuniy qurilmalar va o‘zboshimcha egallangan yerlarni aniqlashda nazoratni o‘rnatish. Jumladan: *1-chorakda – 2,5 ming ta;* *2-chorakda – 3,7 ming ta;* *3-chorakda – 3,7 ming ta;* *4-chorakda – 2,6 ming ta.* 2. Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borish.	2024-yil davomida har chorak yakuni bilan	F.Pulatov, A.Allaberganov, M.Fayzullayev, Hududiy boshqarma boshliqlari
2.	**2 200 ming** ta bino va inshootlarni o‘lchash va ularning elektron bazasini yaratilishi ustidan nazorat o‘rnatish. *2023-yilga (644 ming ta) nisbatan 342 foiz.*	1. 2024-yil yakuniga qadar 2 200 ming ta bino va inshootlarni o‘lchash bo‘yicha nazorat o‘rnatish. Jumladan: *1-chorakda – 450 ming ta;* *2-chorakda – 500 ming ta;* *3-chorakda – 550 ming ta;* *4-chorakda – 700 ming ta.* 2. Inventarizatsiya natijasida to‘plangan ma’lumotlarni elektron ma’lumotlar bazasiga kiritish ustidan nazorat o‘rnatish.	2024-yil davomida 2024-yil dekabr	F.Pulatov, M.Mirmaksudov, Z.Raximov, O.Abdullayev, M.Valiyev

T/r	Maqsadli ko'rsatkichlar (indikatorlari)ga erishish bo'yicha chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi / ishlab chiqiladigan hujjat	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Agentlikning rasmiy veb saytiga ma'lumotlarni kiritib borish.	har chorak yakuni bilan	
3.	**5 614,7 ming** gektar yer uchastkalarini o'lchash va ularning elektron xaritalarini yaratilishini nazorat qilish. *2023-yilga (5 453,6 ming ga) nisbatan 103 foiz.*	1. 2024-yil yakuniga qadar 5 614,7 ming gektar yerlarni o'lchash bo'yicha nazorat o'rnatish. Jumladan: *1-chorakda – 1 103,2 ming ga;* *2-chorakda – 1 390,3 ming ga;* *3-chorakda – 1 503,1 ming ga;* *4-chorakda – 1 618,1 ming ga.* 2. Dala o'lchov natijalarini qayta ishlash va elektron raqamli xaritalarni yaratish ustidan nazorat o'rnatish. 3. Amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borish.	2024-yil davomida 2024-yil dekabr har chorak yakuni bilan	F.Pulatov, T.Abdullayev, I.Ergeshov, A.Omonov
4.	Samolyot yordamida **100 ming** kv.km maydonda *(Buxoro viloyatida – 9,4 ming kv.km, Jizzax viloyatida – 8,9 ming kv.km, Navoiy viloyatida – 30,4 ming kv.km, Samarqand viloyatida – 14,8 ming kv.km, Surxondaryo viloyatida – 4,9 ming kv.km, Sirdaryo viloyatida – 1,3 ming kv.km hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida – 30,3 ming kv.km)* aerosuratga olish ishlari bajarilishini nazorat qilish. *2023-yilga (95,3 ming) nisbatan 105 foiz.*	1. 2024-yil yakuniga qadar 100 ming kv.km. hududda aerosuratga olish ishlari bajarilishi bo'yicha nazorat o'rnatish. Jumladan: *1-chorakda – 2 ta hududda 10,2 ming kv.km;* *2-chorakda – 2 ta hududda 35,3 ming kv.km;* *3-chorakda – 1 ta hududda 30,3 ming kv.km;* *4-chorakda – 2 ta hududda 24,2 ming kv.km.* 2. Amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish.	2024-yil dekabr	F.Pulatov T.Abdullayev, I.Ergeshov, A.Omonov
5.	**52 nafar** xodimlarni xorijiy davlatlarga stajirovka o'tash uchun yuborilishini nazorat qilish. *2023-yilga (42 ta) nisbatan 124 foiz.*	1. Xodimlar stajirovkaga yuborilishi, ularning tajriba o'rganishi hamda malakasi oshirilishi ustidan nazorat o'rnatish. Jumladan: *1-chorakda – 10 nafar;* *2-chorakda – 10 nafar;* *3-chorakda – 15 nafar;* *4-chorakda – 17 nafar.*	2024-yil davomida	F.Pulatov, A.Abdullayev, Sh.Olimov, Z.Abdugafurova

T/r	Maqsadli ko'rsatkichlar (indikatorlari)ga erishish bo'yicha chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi / ishlab chiqiladigan hujjat	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Agentlikning rasmiy veb saytiga ma'lumotlarni kiritib borish.	har chorak yakuni bilan	
6	**40,7 ming** ta bo'sh turgan yer uchastkalarni xatlovdan o'tkazish va "Yerelektron" AATga kiritish. *2023-yilga (38 ming) nisbatan 107 foiz.*	1. Bo'sh turgan yer uchastkalarni xatlovdan o'tkazish bo'yicha reja grafik ishlab chiqish; 2. Hududlar va aholi punktlari, master-reja va shaharsozlik hujjatlari va takliflarini ko'rib chiqish natijalari asosida "Yerelektron" AATga yuklash.	2024-yil dekabr	F.Pulatov, M.Mirmaksudov, Q.Babajanov, M.Valiyev
7	Ruxsatnomalar asosida yuridik shaxslarga **3 900 ta** kartografiya va geodeziya materiallarini (ma'lumotlarni) taqdim etish. *2023-yilga (3 858 ta) nisbatan 101 foiz.*	1. Yuridik shaxslar tomonidan so'ralgan kartografiya va geodeziya materiallarining (ma'lumotlarning) Davlat kartografiya-geodeziya fondida mavjudligini o'rganish; 2. Mavjud kartografiya yoki geodeziya materiallariga (ma'lumotlariga) ruxsatnomalar rasmiylashtirish.	2024-yil dekabr	F.Pulatov, A.Allaberganov, U.Imomqulov
8	**3 ta** yangi turdagi kadastr xizmatlarini joriy etish.	Ko'chmas mulkni bo'lish va uning yangi chegaralarini belgilash, Ko'chmas mulkni birlashtirish va uning yangi chegaralarini belgilash hamda turar-joy obyektlarini kadastr pasportini shakllantirish va ularga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish kompozit xizmatini joriy etish.	2024-yil dekabr	F.Pulatov, M.Mirmaksudov, O.Abdullayev, Z.Raximov, M.Valiyev
9	**1 600 nafar** soha mutaxassislarini hamda xususiy kadastr muhandislarini malakasini oshirish. *2023-yilga (1 460 nafar) nisbatan 110 foiz.*	Agentlik huzuridagi malaka oshirish markazida soha mutaxassislarini hamda xususiy kadastr muhandislari uchun o'quv kurslarini tashkil qilish, xodimlarni onlayn va oflayn malakasini oshirish.	2024-yil dekabr	F.Pulatov, A.Abdullayev, Sh.Olimov